

**BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA VODIY SHAHARLARI TA’RIFI  
VA UNING TIBBIY JIHATDAN IQLIMINING AHAMIYATI**

*Iskandarov Sherzod*

*Tarix fanlari bo‘yicha\* falsafa doktori,*

*TTA dotsenti*

*+998909055614*

*Ro‘ziyev Navro‘z*

*TTA tarix fani o‘qituvchisi\*,*

*+998914739947*

**Annotatsiya:** “Boburnoma” asarini o‘qitilishida ma’lumotlarning eslab qolish va shaharlar ta’rifini tahlil qilish ko‘nikmasi shakllantirishga doir tavsiyalar berildi

**Аннотация:** Даны рекомендации по формированию умения запоминать информацию и анализировать определения городов в преподавании произведения «Бабурнома».

**Abstract:** In this article, recommendations were given on the formation of the ability to remember information and analyze the definition of cities in the teaching of the work "Baburnoma".

**Kalit so‘zlar:** memuar, mumtoz, kent, badiiyat

**Ключевые слова:** мемуары, классик, Кент, искусство.

**Key words:** memoir, classic, Kent, art

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat dilbar shoir, davlat arbobi, balki qomusiy bilimlar egasi bo‘lgan buyuk shaxs.

Bobur tabiatdan qiziquvchan bo‘lgani bois barcha sohalari qatori tibbiyotga ham katta e’tibor bergan.

Chunonchi, Bobur “Boburnoma” asarida har bir shahar ta’rifini berganda, mazkur joylardagi o‘simlik va hayvonlarni ham tanishtiradi va hatto ana shu meva va sabzavotlar, hayvon go’shtlarining shifobaxsh xususiyatlarini ham nazardan chetda qoldirmaydi.

Binobarin, “Boburnoma” memuar asarida, jumladan, shunday yozadi:

“Agar odamning suyak iligi chiqib ketsa, bu chiropraktor dori berib, bemor tuzalib ketardi. U arteriya yaqinidagi har qanday yarani osongina davolagan. Ba’zi yaralarga gipsga o‘xshash narsa surib, boshqa yaralarga dori-darmon berdi. U mening sonimdagi yaraga xom yong‘oq surtishni buyurdi, lekin tuklar surmadi. Bundan tashqari, u bir marta menga ovqatlanish uchun qandaydir ildiz berdi”.

Bobur baxshining tabobatga oid fikrlarini asarida to‘la va butun tafsilotlari bilan tushuntirib beradi,

Ko‘rinadiki, Zahiriddin Muhammad Bobur tabobat ilmiga ham befarq bo‘lmagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o‘rganish orqali farzandlarimiz bir nechta sohalarni bilishlari mumkin. Eng avvalo o‘qituvchilarning tarix, adabiyot, geografiya, kimyo, tibbiyot, biologiya va boshqa sohalarga doir bilimlari kengayib, ularning dunyoqarashlari ham o‘sib boradi.

“Yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda mumtoz adabiyotning o‘rni beqiyos. O‘zbek adabiyoti tarixiga oid badiiy manbalarni o‘qir ekanmiz, ajdodlarimizning teran tafakkur sohibi bo‘lishgani, davr muammolarini yoritish bilan birga voqelikni oldindan ko‘ra bilishgani, insoniyat taraqqiyotiga doir umrboqiy hikmatlarni yozib qoldirishganiga guvoh bo‘lamiz. Zahiriddin Muhammad Bobur yosh avlod o‘rganishi lozim bo‘lgan daho ijodkorlardan biridir”,- deydi filologiya fanlari doktori, professori Z. Xolmonova.

Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Boburning dunyoga mashhur memuar asari “Boburnoma” deyarli dunyoning barcha tillariga tarjima qilingan.

Bobur – vodiy farzandi. Shu bois uning barcha asarlarida vodiy ta’rifi, uning tabiati, hayvonot va nabodat olami, iqlimi, tabiati o‘zgacha bir mehr bilan tasvirlanadi.

Quyida “Boburnoma” asarining ana shu jihatlari misolida baholi qudrat fikrlarimizni bayon etamiz.

Andijon haqida shoir shunday ta’rif beradi:

“... Andijondurkim, vasatta voqe bo‘lubtur. Farg‘ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, quvon va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo‘lmas”.

Bobur Andijon ta’rifini berar ekan, eng avvalo, uning geografik joylashuvini, ayniqsa, qovun va uzumi bilan mashhur ekanligini ta’riflaydi.

Xalqining saxiyliги, ya’ni poliz boshida qovunlarni sotmasligi va tekinga berishini alohida ta’kidlaydi. Andijonni Samarqand va Shahribzdan keyin eng kattasi shu yer, deydi.

Xalqi turkigo‘y, ya’ni o‘zbeklar bo‘lib, hatto Alisher Navoiy ham Hirotda tug‘ilgan bo‘lsada, shu tilde gapiradi, deydi. Bobur Axxi haqida quyidagicha ta’rif beradi:

... Axxidur. Kitoblarda Axxikat bitirlar ... Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir-ikki martaba tashqarroqdin yana jarlar soldi ... Qovuni yaxshi bo‘lur. Bir nav’ qovundurkim, “Mir Temuriy” derlar, andoq qovun ma’lum emaskim olamda bo‘g‘ay.”

Hozirgi kunda Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumani va Mingbuloq tumanlari o‘ralig‘ida joylashgan Axxi maydoni davlat muhofazasiga olingan. U yerda ayni davrda aholi yashamaydi.

Axxi Umarshayx mirzo, ya’ni Boburning otasi hukmdorlik qilgan davrda poytaxt hisoblangan, Sirdaryoning bir irmog‘i yonida joylashgan. Axxining qovuni mashhur ekan. U Buxoro qovunidan ham shirin ekanligi ta’kidlanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida juda ko‘plab shahar va kentlar, qishloq va mahallalar ta’rifini beradi. Ammo bular ichida Farg‘ona vodiysiga kiruvchi shahar va kentlarni o‘zgacha mehr-muhabbat bilan ta’riflaydi. Bu ta’riflar, nafaqat “Boburnoma”da, balki uning g‘azallarida ham o‘z aksini topgan.

Ana shu ta’riflarda shoirning Vataniga bo‘lgan cheksiz mahabbatini ko‘rish mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o‘rganish barobarida o‘quvchilarga shoirga xos vatanparvarlikni singdirsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bunday mavzularni mustahkamlashda jadvallardan foydalanish

maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shaharlar nomi	O‘qituvchining eslab qolgan ta’riflari
Andijon haqida	- Qovuni shirin, - Tili turk ( o‘zbek) - ? - ? - ?
Axsi haqida	- Sirdaryo bo‘yicha joylashgan - Poytaxt hisoblangan - ? - ? - ?

Bobur har bir shaharni ta’riflagan nafaqat uning chiroyi yoki joylashuviga, balki mazkur joylardagi tabiatga, iqlimga, joylarning tabiiy giyohlariga va o‘smliklariga, ana shu o‘smliklarning foydali, shifobaxsh xususiyatlariga ham keng e’tibor qaratadi. U tabobatni yaxshi tushunadi va o‘smlik va hayvonlarning alohida qayd etadi.

Binobarin, “Boburnoma”da Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston kabi mamlakatlarning tarixi, geografiyasi, xalqlarning turmush kechrish tarzi, madaniyati bilan birga, o‘smlik va hayvonot olami to‘g‘risida qiziqarli ma’lumot berilgan. U o‘zi ko‘rgan, kuzatganlariga asoslangan holda hayvon va o‘smlikning tuzilishi, hayot tarzi, ularning o‘zaro o‘xshashligi yoki farqlari haqida ma’lumotlarni bayon etgan.

Bobur hayvonlarni to‘rt guruhga ajratgan: quruqlik hayvonlari, parrandalar, suv yaqinida yashaydigan hayvonlar va suv hayvonlariga ajratgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Z. Xolmonova. Til va adabiyot ta’limi. T-2018, bet-39
2. Boburnoma. T-1989, bet-8
3. Boburnoma. T-1989, bet-5,6
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. 10-sinf Biologiya darsligi. T-2017, bet-160